

SIYOSIY DISKURSDA METAFORANING KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Yakubov Faxriddin Juraqulovich

SamDU Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada metaforaning kognitiv funksiyasi, o'zbek, rus va ingliz tili siyosiy diskursida metaforaning kognitiv tahlili beriladi.

Kalit so'zlar: siyosiy diskurs, kognitiv funksiya, ilmiy diskurs, konseptual metafora, metaforik modellash, metaforik obraz, konseptual tahlil, kognitiv tahlil.

Abstract: The article discusses cognitive function of metaphor and gives cognitive analysis of metaphor in Uzbek, Russian and English political discourse.

Key words: political discourse, cognitive function, scientific discourse, conceptual metaphor, metaphorical modelling, concept analysis, cognitive analysis.

Аннотация: в данной статье рассматривается когнитивная функция метафоры, когнитивный анализ метафоры в узбекском, русском и английском политическом дискурсе.

Ключевые слова: политический дискурс, когнитивная функция, научный дискурс, концептуальная метафора, метафорическое моделирование, метафорический образ, концептуальный анализ, когнитивный анализ.

Metafora tushunchasiga an'anaviy yondashuvda nomlanishning bir predmetdan ikkinchisiga ko'chirilishi, ikki buyum yoki hodisa taqqoslanayotgan paytda birining alomatlari yoki sifatleri boshqasiga ko'chirilishi tushunilgan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, metaforalarning ishlatilishi nomlanishlar arsenalini (til leksikonini) boyitadi, nutqni bezaydi va adresatga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, metaforiklik ba'zan fikrlash aniqligi va oydinligiga ham halaqit beradi deb tushunishgan.

Hozirgi davr tadqiqotchilari esa inson nafaqat o'z fikrlarini metaforalar yordamida ifodalaydi, balki metaforalar bilan fikrlaydi, o'zi yashayotgan dunyoni metaforalar bilan anglaydi hamda muloqot faoliyati jarayonida adresat ongidagi dunyoning til manzarasini o'zgartirishga harakat qiladi degan fikrni olg'a surmoqdalar. Bundan kelib chiqadiki, metaforiklik – bu ijodiy tafakkur qilishning tabiiy yo'li, u dunyoni bilishning asosiy yo'lidan og'ish emas va nutqni bezash usuli ham emas.

Metaforani ko'zguga o'xshatishadi, bunda kimningdir yoqtirishi yoki yoqtirmasligidan qat'iy nazar, milliy ong aks etadi, xususan, siyosiy hayot mohiyati va inson maishiy hayotining turli sohalarining o'zaro bog'liqligi ham aks etadi.

Siyosiy diskursda metaforaning asosiy funksiyalaridan biri – bu kognitiv funksiya. Hozirgi davrda metafora bilan fikrlash oqilona, mantiqiy (ratsional) tafakkur qilishdan kam ahamiyatga ega emas deb hisoblanmoqda. Shunga ko'ra, metaforani asosiy mental operatsiya, dunyoni bilish va kategoriyalarga bo'lish usuli deb tushunishadi. Metafora kognitiv jarayonlarda ham inson ongi o'xshash imkoniyatlarining namoyon bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Yangi, murakkab, oxirigacha tushunarli bo'lmagan narsalarga murojaat qilganda inson qandaydir tanishroq, tushunarliroq sohalarning elementlaridan foydalanishga harakat qiladi. Murakkabligi va yuqori darajada mavhumligi bilan ajralib turadigan siyosiy diskursni metaforik modelleshdan inson o'ziga yaxshi tanish bo'lgan sohalardan eng oddiy va konkret obrazlardan foydalanadi.

J. Lakoff va M. Johsonning “Biz birga yashayotgan metaforalar” (Metaphors we live by) tadqiqoti kognitiv metafora nazariyasiga asos soldi [4].

Zamonaviy tilshunoslikda metafora bilan fikrlash ratsional fikrlash kabi muhim ahamiyatga ega deb qaralmoqda. Bundan kelib chiqadiki, metafora asosiy aqliy operatsiya, dunyoni bilish va kategoriyalashtirish usuli sifatida tushuniladi. Fikrlash faoliyati jarayonida analogiya ratsional fikrlashning formallashtirilgan tartibidan ko'ra kam rol o'ynamaydi. Yangi, murakkabroq, oxirigacha tushunarli bo'lmagan narsaga murojaat qilganda inson fikrlash uchun tanishroq, tushunarliroq bo'lgan soha elementlaridan foydalanadi.

Murakkabligi va yuqori darajada mavhumligi bilan ajralib turadigan siyosiy sohani metaforik modelleshdan esa inson ko'pincha o'ziga yaxshi tanish bo'lgan sohalardan, oddiyroq va konkret obrazlardan foydalanadi.

Masalan, quyidagi parchada mualliflar Rossiya milliy vatanparvar ittifoqi tushgan murakkab vaziyatni rus lisoniy ongi uchun odatiy bo'lgan “o'simliklar dunyosi” manbasiga xos bo'lgan metafora bilan xarakterlashga harakat qilishadi:

O'tgan yilda NPSR (Rossiya milliy vatanparvarlik harakati) bo'ron shoxlarini sindirgan va barglarini yulgan daraxtga o'xshardi. Bo'ron uning sarg'aygan barglarini, hali pishmagan mevalarini, pakana, beqaror kurtaklarini yulib ketgan. Mana shu eskirgan va uringan og'och ostida Podberezkin, Lapshin va Tulevlar hech kimga keraksiz holda yotishibdi...

Metafora - fikrlashning alohida usuli, inson tafakkurining analogli fikrlashi namoyon bo'ladigan tilning har kungi realligi. Metaforik obrazlar insonning intellektual tizimida mavjud, bu inson o'ylaydigan va harakat qiladigan o'ziga xos turdagi sxemalardir [3]. O'zbekistonda siyosiy islohotlar doimo rivojlanish jarayonida, yangi, hozircha nomsiz realiyalar uchun ba'zan metaforalar ishlatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri savollariga javob berib, shunday dedi:

“... Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda.

...Agar biz bundan besh yil oldin qabul qilgan Harakatlar strategiyasining tub mazmun-mohiyatini muxtasar ifoda etadigan bo‘lsak, ushbu noyob hujjatda o‘z oldimizga Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk vazifalarni strategik maqsad qilib qo‘ygan edik” [5].

“Yangi O‘zbekiston” yurtimizda o‘tkazilayotgan siyosiy islohotlar yangi davrining nomlanishi.

Boshqa holatlarda metafora allaqachon mavjud bo‘lgan, lekin qandaydir sabablarga ko‘ra muallifni qoniqtirmaydigan nomlanishlar o‘rniga boshqacha nomlanish bilan namoyon bo‘ladi. Metafora yordamida ma‘lum bir hodisa kategoriyaga ajratiladi va bu ushbu hodisaning mohiyatini yaxshiroq aniqlashga va unga o‘z munosabatini bildirishga yordam beradi. Masalan, davlat mulkini xususiy shaxslarga berish jarayoni *xususiyashtirish* deb nomlangan. Lekin, murosasiz oppozitsiya vakillari Rossiyada o‘tkazilgan xususiyashtirishni *talonchilik* deb ataydi, ya‘ni metafora yordamida shunga muvofiq keladigan harakatlarni “jinoiy harakatlar” kategoriyasiga kiritadi va ularning salbiy bahosini ta‘kidlaydi. *Bu kapitalning jamlanishi emas, balki mamlakatni vijdotsizlik, andishasizlik bilan banditlarcha talon-taroj qilish. Hozir talonchilik davom etmoqda va uning oxiri ko‘rinmaydi* (G. Zyuganov).

Topilgan obraz asta-sekin oydinlashib, tafsilotlari ma‘lum bo‘la boshlaydi: agar xususiyashtirish talonchilik bo‘lsa, unda uning tashkilotchilari va qatnashchilari – banditlar, mamlakat prezidenti esa, banda boshlig‘i, cho‘qintirgan otasidir. Xususiyashtirishga qarshi bo‘lganlar esa, qonun himoyasida turgan, jinoyatchilikka to‘sqinlik qiluvchi kishilar sifatida qabul qilinadi. Metaforalarning bunday tizimi kommunistik matbuotda doim ishlatilgan hamda kommunistik ong uchun xarakterli bo‘lgan sobiq ittifoqdagi Rossiyaning metaforik modelini yaratgan [3].

Ko‘p hollarda metafora oxirigacha anglanmagan nimanidir taqdim etish uchun imkon beradi, metafora bilan tasniflangan ob‘ektning mohiyati haqida ozroq bo‘lsa-da faraz qilishga yordam beradi. Bu ilmiy diskurs uchun xos bo‘lsa-da, siyosiy diskurs ham bundan mustasno emas. Masalan, o‘tgan asrning 80 – yillari o‘rtalarida Yevropadagi davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalashda *umumyevropa uyi* metaforasi ishlatila boshladi, postcovet davrida bu metafora *temir parda* konfrontatsion metaforasi bilan almashdi. Kechagi dushmanlar o‘rtasidagi munosabatlar hali noma‘lum edi, lekin metafora yaxshi tanish bo‘lgan tushunchali

asosni ishlatib, hech bo'lmaganda munosabatlarning umumiy prinsiplari haqida tasavvurni yaratdi.

Til faqat fikrlash quroli emas, balki axborotni yetkazish vositasi hamdir. Kishi metafora bilan fikrlar ekan, mutlaqo tabiiyki, axborotni ham metafora bilan yetkazadi.

Yana bir misol. T. Blerning 1997 yil 2 – dekabrda sport kampaniyasidagi irqchilikka qarshi so'zlagan nutqini ko'rib chiqamiz. Bu nutq qora tanli kishilarga nisbatan tolerantlikka chaqirishning yorqin namunasi. Bler jamoatchilikni butun Yevropa uchun nozik va hayajonli muammo bo'lgan irqchilikka qarshi ma'lum bir choralar ko'rishga undaydi. Bu zamonaviy jamiyatda va sportda qora tanli kishilar bilan konfliktga yechim topish va ommada ma'lum bir ijobiy emotsiyalar uyg'otishga harakat qilingan yetarli darajada to'g'ri idrok qilingan nutqdir.

1. ...Sport – and particularly football – is the international language. ... In the past the cancer of racism has too often scarred our game – the sound of revolting monkey chanting whenever a black player got the ball. Bananas thrown on the pitch. Black players and fans verbally intimidated...

Bu yerda voqealarni taqdim etishda kontrast kuzatiladi. Rasizm konseptual metaforalar bilan mutlaqo yovuzlik timsoli bo'lib ko'rsatiladi. Irqchilik – kasallik, irqchilik – qo'pol hayvonlar dunyosi, bu tagiga chizilgan frazalarda o'z diskursiv ifodasini topgan. Qanchalik paradoksal bo'lmasin, bu diskurs parchasi tolerantlikka yo'naltirilgan sifatida markirlangan, va faqat the International language birikmasi uchun emas, - o'z maqsadiga ko'ra butun parcha tolerantlikka chaqirishdir, irqchilik bunda absolyut yovuzlikdir.

Endi keyingi nutqqa e'tiborni qaratsak, bunda tolerantlik prinsipi ma'lum sabablarga ko'ra gapiruvchi tomonidan ma'lum sabablarga ko'ra buziladi. Masalan, Uynston Cherrillning sovet-german urushi haqidagi nutqi, bu nutq gapiruvchining Gitler va fashistlar Germaniyasiga qarshi nafratidan guvohlik beradi, bu - bir tomondan haqqoniy nafrat, ikkinchi tomondan fashistlar Germaniyasining butun Yevropaga qarshi bosqinchilik agressiyasiga qarshi norozilik.

*... Hitler is a monster of wickedness, insatiable in his lust for blood and plunder...
... and jackal, Mussolini ...*

Bu yerda kognitiv metaforaning diskursiv reallashishi kuzatiladi: siyosat = hayvonlar dunyosi, keyingi voqealar davomida siyosiy arbob=yovuz yirtqich; metaforaning diskursiv markerlari “maxluq-yirtqich” semantik maydonidagi lersemalar.

... Not content with having all Europe under his heel or else terrorised into various forms of abject submission, he must now carry his work of butchery and desolation among the vast multitudes of Russia and of Asia...

Bu yerda “qassobning faoliyati” assosiativ maydoni bilan kognitiv metaforaning keyingi diskursiv rivojlanishi kuzatiladi.

...The Nazi regime ... excels in all forms of human wickedness, in the efficiency of its cruelty and ferocious aggression...

Butchery semantik maydoniga tegishli *wickedness, cruelty, ferocity* leksemalarining diskursiv metaforalashishida keyingi detallashuvlar.

Diskursning kognitiv tahlili metodining ikki aspekti bor: matn tahlil, kontekst tahlil. Matn tahlil fonetik, grafik, morfologik, sintaktik, semantik, ya'ni barcha darajadagi til strukturalarini o'z ichiga oladi. Kontekstual tahlil esa barcha ekstralingvistik faktorlarni o'z ichiga oladi: zamon, makon, faoliyat sferalari, diskurs ishtirokchilari, ularning ijtimoiy roli, ularning o'zaro munosabatlarining xarakteri va diskurs qatnashchilarining kognitiv xarakteristikasi kabilar [8].

Siyosiy diskursda metaforaning ishlatilishi tahliliga diskursiv-kognitiv yondashuv muhim ahamiyatga ega. Lekin, kognitiv nazariyaning ko'p qirralari hali ochilmasdan qolmoqda. Fikrimizcha, bundan keyingi tadqiqotlarda kognitiv xususiyatlarning yangi qirralarini ochish uchun izlanishlar olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Баранов А.Н. Очерк когнитивной теории метафоры // Баранов А.Н., Караулов Ю.Н. Русская политическая метафора. Материалы к словарю. – М., 1991. – С. 184–193.
2. Чудинов А.П. Россия в метафорическом зеркале: когнитивное исследование политической метафоры (1991-2000). – Екатеринбург, 2001.
3. Чудинов А.П. Политическая лингвистика. – М., 2006.
4. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под. ред. и с предисл. А.Н. Баранова. – М., 2004.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. Manba: Yuz.uz
6. Anderson R.D., Jr. The Causal Power of Metaphor in Politics // www.sscnet.ucla.edu/polisci/faculty/anderson/MetaphorsCauses.htm – 2002a.
7. Будаев Э.В., Чудинов А.П. Метафора в политическом интердискурсе / Изд. 2-е, испр. и доп. – Екатеринбург, 2006.
8. Shapochkin D.V. Politicheskiy diskurs: kognitivniy aspekt: monografiya. Izdatelstvo Tyumenskogo gosudarstvennogo universiteta, 2019. -293 s.